

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.06/30.12.2019.V.12.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

SEYPULLAYEV AZAMAT KUTLIMURATOVICH

**OROL BO‘YI EKOTIZIMI SHAROITIDAGI ZOTLI SIGIRLARDA
VITAMINLAR VA MINERAL MODDALAR ALMASHINUVI
BUZULISHLARINING ETIOPATOGENEZI VA GURUHLI
PROFILKATIKASI**

**16.00.01.-Hayvonlar kasalliklari diagnostikasi, terapiyasi va xirurgiyasi,
16.00.02-Hayvonlar patologiyasi, onkologiyasi va morfologiyasi. Veterinariya
akusherligi va hayvonlar reproduksiyasi biotexnikasi.**

**VETERINARIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Veterinariya fanlari bo'yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
ветеринарным наукам**

Content of the abstract of doctoral dissertation (PhD) on veterinary sciences

Seypullayev azamat kutlimuratovich

Orol bo'yi ekotizimi sharoitidagi zotli sigirlarda vitaminlar va mineral
moddalar almashinuvi buzulishlarining etiopatogenezi va guruhli
profilkatikasi.....

5

Сейпуллаев Азамат Кутлымуратович

Этиопатогенез и групповая профилактика нарушений витаминов и
минеральных веществ у породистых коров в условиях приаральской
экосистемы.....

21

Seypullaev Azamat Kutlimuratovich

Etiopathogenesis and group prophylaxis of vitamin and mineral deficiencies in
pedigree cows under the conditions of the priaral ecosystem.....

39

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....

43

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.06/30.12.2019.V.12.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

SEYPULLAYEV AZAMAT KUTLIMURATOVICH

**OROL BO‘YI EKOTIZIMI SHAROITIDAGI ZOTLI SIGIRLARDA
VITAMINLAR VA MINERAL MODDALAR ALMASHINUVI
BUZULISHLARINING ETIOPATOGENEZI VA GURUHLI
PROFILKATIKASI**

**16.00.01.-Hayvonlar kasalliklari diagnostikasi, terapiyasi va xirurgiyasi,
16.00.02-Hayvonlar patologiyasi, onkologiyasi va morfologiyasi. Veterinariya
akusherligi va hayvonlar reproduksiyasi biotexnikasi.**

**VETERINARIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PHD/V155 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.ssuv.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Yunusov Xudaynazar Beknazarovich
Biologiya fanlari doktori, professor

Bakirov Baxtiyor
Veterinariya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Eshburiyev Baxtiyor Mamatkulovich
Veterinariya fanlari doktori, professor

Tursagatov Jahongir Mamatovich
Veterinariya fanlari nomzodi

Yetakchi tashkilot:

Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetini huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/30.12.2019V.12.01 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil «28» 11 oy soat «15⁰⁰» dagi majlislar zalida bo'lib o'tadi. ((Manzil: 140103, Samarqand shahri, M.Ulug'bek ko'chasi, 77 uy. Tel./fax: (99866) 234-76-86; e-mail: ssuv@edu.uz)

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (14348 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140103, Samarqand shahri, M.Ulug'bek ko'chasi, 77 uy. Tel./fax: (99866) 234-76-86.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «8» 11 oy kuni tarqatildi.
(2025 yil «8» 11 dagi № 06 - raqamli reestr bayonnomasi)



N.B.Dilmurodov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi
o'rinbosari, vet.f.d., professor

K.X.Urokov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotiibi, vet.f.d., dotsent v.b.

Q.N.Norboyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, vet.fan
doktori, professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Bugungi kunda dunyoning ko'pchilik davlatlarida "chorvachilikda mahsuldor qoramollarning vitaminlar va minerallar almashinuvi buzulishlari oqibatida kelib chiqadigan kasalliklar bilan kasallanish darajasi o'rtacha 30-50 foizni tashkil etmoqda"¹. Ushbu guruh kasalliklari mahsuldor qoramollarning o'sish va rivojlanishining sekinlashishi hamda reproduktiv faoliyatining yomonlashishiga olib keladi. Mazkur muammoning samarali yechimlarini ishlab chiqish dunyo aholisining chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish hamda ozuq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizning Orol bo'yi hududlari sharoitlarida tuproqning yuqori darajada sho'rlanishi oqibatida vujudga kelgan ekstremal ekologik omillar nafaqat hududda yashovchi insonlar sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda, balki mazkur hududlarda parvarishlanayotgan chorva mollari, ayniqsa chetdan olib kelingan zotli qoramollardan foydalanish samarasining sezilarli darajada pasayishiga olib kelmoqda. Bunday holat nafaqat O'zbekiston Respublikasi hukumati rahbariyati, balki dunyo hamjamiyatining ham keyingi qator yillardan buyon diqqatini o'ziga jalb etib kelmoqda.

Orol bo'yi hududlaridagi keskin ekstremal ekologik muhit zotli qoramollar orasida modda almashinuvi buzulishlari, shu jumladan A-gipovitaminoz, alimentar osteodistrofiya, raxit va alimentar distrofiya kabi og'ir kasalliklarni o'z ichiga oluvchi vitaminlar va mineral moddalar almashinuvi buzulishi kasalliklarining yil sayin ko'payib borishiga olib kelmoqda. Bunday buzulishlar oqibatida zotli sigirlardan olinadigan sut mahsuldorligining potentsial imkoniytlarga qaraganda 30-50%, buzoq olishning 20-30% ga pasayishi kuzatilmoqda. Bunday sigirlardan gipotrofik va past rezistentlikdagi buzoq tug'ilishi va natijada bir yosgacha davrdagi buzoqlarning dispepsiya, raxit, bronxopnevmoniya va boshqa qator kasalliklar bilan kasallanishining yilma-yil ko'payib borishi va nobud bo'lishi oqibatida podani to'ldirishning buzulishi hamda poda strukturasida sog'in sigirlar salmog'ining pasayib ketishi va natijada zotli qoramolchilik bilan shug'ullanuvchi fermer xo'jaliklari va xususiy tadbirkorlarning katta iqtisodiy zarar ko'rishiga olib kelmoqda. Bunday holat, tabiiyki, keskin ekstremal ekologik hudud hisoblangan Qoraqalpog'iston Respublikasining Orol bo'yi hududlari sharoitlarida parvarishlanayotgan zotli sigirlarda vitaminlar va mineral moddalar almashinuvi buzulishlarining ilmiy asoslangan ertachi tashxis usuli hamda samarali guruhli oldini olish chora tadbirlari majmuyini ishlab chiqishni taqoza etadi.

Orolbo'yi ekotizimi sharoitlaridagi zotli sigirlarda vitaminlar va mineral moddalar almashinuvi buzulishlarining ertachi tashxis hamda guruhli oldini olish chora tadbirlari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.

¹ Танкова О.В.Нарушение минерально-витаминного обмена у коров автореф дисс. канд. вет.наук. Барнаул. 2011.-20 с.

Tadqiqotlar oby'ekti bo'lib Qoraqalpog'iston Respublikasining Taxtakopir va Mo'ynoq tumanlari sharoitidagi fermer xo'jaliklarida parvarishlanayotgan zotli sigirlar, ulardan olingan qon hamda oshqozon suyuqligi namunalari, mikroelement tuzlaridan kobalt xlorid, mis sulfat, temir sulfat, rux sulfat, marganets sulfat, shuningdek biostimulyatorlardan E-selen va Katozal-100 dori vositalari, vitamin+minerallar, trivit, monokaltsiyfosfat va faollashtirilgan yodlangan tuz xizmat qildi.

Tadqiqotning predmeti. Qoraqalpog'iston Respublikasining Orol bo'yi hududlarida ekstremal omillarning zotli sigirlarning klinik hamda fiziologik ko'rsatkichlari, qonning morfologik hamda biokimyoviy ko'rsatkichlari, suyakdagi minerallanish jarayoni hamda jigarning funktsional holatiga ta'siri, zotli sigirlarda vitaminlar va mineral moddalar almashinuvi buzulishlarining ertachi tashxis usuli va guruhli profilaktikasi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishini bajarishda klinik, morfologik, biokimyoviy, patologoanatomik, rentgenologik, mikroskopik, terapevtik, profilaktik va statistik usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Ilk bor Qoraqalpog'iston Respublikasining Orol bo'yi hududlari sharoitidagi zotli sigirlarda vitaminlar va mineral moddalar almashinuvi buzulishlarining tarqalishi va iqtisodiy zarari aniqlangan;

Orol bo'yi hududlari sharoitidagi zotli sigirlarda vitaminlar va mineral moddalar almashinuvi buzulishlarining tuproq sho'rlanishi hamda uning endemik xususiyatlari, shuningdek ratsion to'yimsizligiga bog'liq holdagi sabablari aniqlangan;

Zotli sigirlarda vitaminlar va mineral moddalar almashinuvi buzulishlarining asosan A-gipovitaminoz, osteodistrofiya, gipomagniyemiya, gipomargantsiyemiya, gipokobaltoz, gipokuporoz kabi yashirin hamda klinik shakllarda kechishi, shuningdek suyaklardagi patologik o'zgarishlarni ifodalovchi simptomlari, gemomorfologik, gemobiokimyoviy va rentgenologik o'zgarishlari aniqlangan;

Zotli sigirlarda vitaminlar va mineral moddalar almashinuvi buzulishlarining o'ziga xos klinik va fiziologik, gemomorfologik, gemobiokimyoviy va rentgenologik o'zgarishlar majmuyini aniqlashga qaratilgan ertachi tashxis usuli ishlab chiqilgan;

Zotli sigirlarda vitaminlar va mineral moddalar almashinuvi buzulishlari sababli ratsionni mutadillashtirish, shuningdek monokaltsiyfosfat, trivit, vitamin+minerallar, E-selen va Katozal-100 ni belgilangan miqdor va tartibda ishlatishga asoslangan guruhli oldini olish usuli ishlab chiqilgan;

Orolbo'yi ekotizimi sharoitlaridagi zotli sigirlarda vitaminlar va mineral moddalar almashinuvi buzulishlarining ertachi tashxis va guruhli oldini olish chora tadbirlari bo'yicha tavsiyanoma ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Mavsumiy dispanserlash o'tkazish orqali o'ziga hos klinik hamda fiziologik, gemomorfologik va gemobiokimyoviy, shuningdek oxirgi dum

umurtqalarining soʻrilish darajasining kuchayishini oʻz ichiga oluvchi oʻzgarishlarni eʼtiborga olgan holda ishlab chiqilgan vitaminlar va mineral moddalar almashinuvi buzulishlarining ertachi tashxis usulini qoʻllash orqali Taxtakopir tumanidagi “Seyit Sharwa” fermer xoʻjaligida 35-45 %, Moʻynoq tumanidagi “Qazaxdarya” 30-40% qoramolchilik fermer xoʻjaligida 35-55% zotli sigirning vitaminlar va mineral moddalar almashinuvi buzulishlari bilan yashirin tarzda kasallanganligi aniqlandi, bunda har sigir boshiga oʻrtacha bir yilda 2-2,5 million soʻmdan iqtisodiy zarar kelayotganligi aniqlandi;

Tajriba oʻtkazgan tumanlar tuprogʻining shoʻrlanish darajasi yuqori ekanligi, shuningdek unda yod, kobalt, marganets, mis miqdorlarining pastligi hamda ratsion toʻyimligining sigirlar sut mahsuldorligi imkoniyatlariga nomuvofiqligi va oqibatda zotli sigirlarda vitaminlar va mineral moddalar almashinuvi buzulishlarining asosan A-gipovitaminoz, osteodistrofiya, gipomagniyemiya, gipomargantsiyemiya, gipokobaltoz, gipokuporoz kabi kasalliklar koʻrinishida namoyon boʻlishi aniqlandi;

Laktatsiyaning 4-6 oylarida 90 kun davomida ratsionni moʻtadillashtirish negizida unga belgilangan miqdor va tartibda kobalt xlorid, mis sulfat, temir sulfat, rux sulfat, marganets sulfat, E-selen, katozal-100, vitamin+minerallar, trivit, monokaltsiyfosfat va qoʻshimcha yodlangan tuzni qoʻshishga asoslangan guruhli profilaktika majmuani qoʻllash orqali Taxtakopir tumanidagi “Seyit Sharwa” qoramolchilik fermer xoʻjaliklari sharoitidagi zotli sigirlarda vitaminlar va mineral moddalar almashinuvi buzulishlarining oldini olishga erishildi;

Orolboʻyi ekotizimi sharoitlaridagi zotli sigirlarda vitaminlar va mineral moddalar almashinuvi buzulishlarining ertachi tashxis hamda guruhli oldini olish chora tadbirlari boʻyicha ishlab chiqilgan tavsiyanoma Qoraqalpogʻiston Respublikasining Taxtakopir tumanidagi “Seyit Sharwa”, Moʻynoq tumanidagi “Qazaxdarya” qoramolchilik fermer xoʻjaliklarida, mos holda 120, 150 va 170 bosh zotli sigirga joriy etildi va bunda iqtisodiy samaradorlik har bosh sigir hisobiga oʻrtacha bir yilda 2,3 mln soʻmni, xarajatlar qoplamasi 4,5 soʻmni tashkil etdi.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi tadqiqot vaqtida olib borilayotgan klinik tekshirish paytida rasmlar olish, olingan namunalarni laboratoriya tekshiruvlari natijalarini tasdiqlangan dalolatnomalarni yigʻib borish, aprobat siyasa komissiyasi oldida taqdim etib borilganligi va ijobiy baholanganligi, tajriba oʻtkazish dalolatnomalarini toʻplash, maʼlumotlarni biometrik ishlovdan oʻtkazish va tajriba natijalarining taqqoslanishi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati zotli sigirlarning vitaminlar va mineral moddalar almashinuvi buzulishlarini monokaltsiyfosfat, trivit, multivit+mineral, E-selen va Katozal-100 preparatlarini qoʻllash orqali sinov tajribalari oʻtkazilganligi va guruhli profilaktikaga yetishganligi, sigirlar organizmida klinik, gemomorfologik, gemobiokimyoviy va rentgenologik oʻzgarishlar tahlil qilinganligi va oldini olishda yangi preparatlarning samaradorligi nazariy va amaliy jihatdan asoslanganligi izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki,

Qoraqalpog‘iston Respublikasining fermer xo‘jaliklari sharoitida sigirlar orasida vitaminlar va mineral moddalar almashinuvi buzulishlarining kelib chiqish sabablarini anizqlanganligi, ushbu kasalliklarni oldini olishda monokaltsiyfosfat, trivit, multivit+minerallar, E-selen va Katozal-100 preparatlarining ta’siri o‘rganilib amaliyotga joriy qilinishi natijasida sigirlar orasida kasallikni oldini olinishining yaxshilanishi orqali fermer xo‘jaliklarga yetkazilayotgan katta iqtisodiy zararining oldi olinganligi bilan tavsiflanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Orol bo‘yi sharoitidagi parvarishlanayotgan zotli sigirlarning vitamin va mineral moddalar almashinuvi buzulishlari oqibatidagi kelib chiqadigan kasalliklarning sabablarini o‘rganish natijalari asosida: «Orol bo‘yi sharoitidagi qoramollarda vitaminlar va minerallar almashinuvi buzulishlarining guruhli profilaktikasi» bo‘yicha tavsiyanoma ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy qilingan O‘zbekiston Respublikasining Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasining 2025 yil 11-martdagi 3-sonli ma’lumotnomasi). Natijada hayvonlarning vitamin va mineral moddalar almashinuvi buzulishlari oqibatida kelib chiqadigan kasalliklar sabablari, rivojlanishi, kechishi, klinik belgilarini o‘rganish asosida ertachi diagnostika usullarini ishlab chiqishga erishilgan;

«Orol bo‘yi sharoitidagi qoramollarda vitaminlar va minerallar almashinuvi buzulishlarining guruhli profilaktikasi» bo‘yicha tavsiyanoma ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy qilingan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasining 2025y. 20-maydagi 33/01-05-554-sonli ma’lumotnomasi). Natijada zotli hayvonlar orasida uchraydigan vitamin va mineral moddalar almashinuvi buzulishlari oqibatida kelib chiqadigan kasalliklarni kamaytirishga, yosh hayvonlarning o‘sishining tezlashishiga, sut mahsuldorligining o‘rtacha 3,6 litrga, tug‘ilgan buzoqlarning tana vaznining 3,2 kg ga yuqori bo‘lishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot natijalari xalqaro 6 ta va 5 respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy ish chop etilgan. Shu jumladan Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyasi asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan 5 tasi xorijiy jurnallarda, 10 ta xalqaro va respublika konferentsiya materilallari to‘plamlarda nashr etilgan. 1 ta tavsiyanoma chop etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya ishi kirish, 5 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 118 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning «**Kirish**» qismida tadqiqotlar mavzusining dolzarbligi va zaruriyati kiritilgan. Mavzuning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim

muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, tadqiqotning oby'ekti va predmetlari, tadqiqotning usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchligi, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi va aprotatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bayon etilgan.

Dissertatsiyaning **«Adabiyotlat ma'lumotlarining tahlili»** deb nomlangan birinchi bobi to'rt qismga bo'lingan bo'lib, uning birinchi qismida hayvonlarda modda almashinuvi kasalliklari, shu jumladan vitaminlar va mineral moddalar almashinuvi buzulish sabablari bilan ishlarini olib borgan respublikamiz va dunyo olimlarining ilmiy tadqiqot ishlari natijalari keltirilgan. Ikkinchi qismida vitaminlar va mineral moddalar almashinuvi buzulishlarining tashxis usullari to'g'risida ilmiy adabiyotlar ma'lumotlari bayon etilgan. Uchinchi qismida vitaminlar va mineral moddalar almashinuvi buzulishlarini guruhli oldini olish usullari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **«Tadqiqotlar obyekti va uslublari»** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot joyi, obyekti va uslublari to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Ilmiy tadqiqotlar 2022-2024 yillarda Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti ilmiy kadrlar tayyorlash MEGA LOYIHASI doirasida universitetning «Ichki yuqumsiz kasalliklar» kafedrasida «Gematologiya» laboratoriyasida, Qoraqalpog'iston Respublikasi Taxtakopir tumanidagi «Seyit sharwa» va Mo'ynoq tumanidagi «Qazaxdarya» qoramolchilik fermer xo'jaliklarida bajarildi. Tajribalar davomida O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston filiali «Ekologiya masalalari bo'yicha muammoviy ilmiy tadqiqot laboratoriyasi», «ATA-ANA» xususiy tibbiy klinikasi laboratoriyasi, №1 Respublika shifoxonasi va Respublika hayvonlar kasalliklari diagnostikasi va ozuq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi davlat markazining toksikologiya bo'limi imkoniyatlaridan foydalanildi.

Hayvonlarning vitamin va mineral moddalarlar almashinuvi buzulishlarining klinik belgilari va kechish xususiyatlari Qoraqalpog'iston Respublikasi Taxtakopur tumanidagi «Seyit sharwa» va Mo'ynoq tumanidagi «Qazaxdarya» fermer xo'jaliklarida 5 boshdan «uxshash juftliklar» tamoyili asosida etalon gruppalar tashkil etilib, qisir, har hil bug'ozlik va laktatsiya davrlardagi sigirlarda dispanserlash o'tkazildi.

Mollarni klinik tekshirishdan o'tkazish mobaynida 1-xo'jalik (Taxtakopir tumanidagi «Seyit sharwa» fermer xo'jaligi) da 37 bosh va 2-xo'jalik (Mo'ynoq tumanidagi «Qazaxdarya» fermer xo'jaligi) da 150 bosh zotli sigirlar mavjudligi aniqlandi va ularning barchasi klinik tekshirishlardan o'tkazildi.

Klinik tekshirish tajribadan oldin 2 marta o'tkazildi.

Tekshirish borasida sigirlarning zoti, birka nomeri, rangi, teri qoplamasidagi o'zgarishlari, limfa tugunlari, shilliq pardalarning rangi, nafas soni, puls soni, katta qorin qisqarishlari (ruminatsiyasi), tuyoqlardagi patologik o'zgarishlar aniqlandi.

Bu xo'jaliklarda dispanserlash vaqtida hayvonlar orasida 5-27,5% mollarda ishtahaning pasayishi, 19-33% oshqozon oldi bo'limlarining gipo va atoniyasi,

36,2-88% diareya (ich ketishlar), 15-42,3% teri qoplamasining hurpayishi va elastikligining pasayishi, 13,7-22% shilliq pardalarining sarg'ayishi va anemiyasi, 19,3-44% puls sonining ko'payishi, 17-52,2% nafas sonining oshishi, 12-30,2% jigarning kattalashishi va 19-36,2% og'riq sezishi, 17-25% tuyuq kasalliklari (pododermatit, nekrobakterioz, laminit) aniqlangan.

«Seyit sharwa» xo'jaligida dispanserlash vaqtida hayvonlarning umumiy ahvoli qoniqarli, semizligi o'rtacha ayrimlarida o'rtachadan past bo'lib, ishtahasi va ruminatsiyasi pasaygan. Qishning oxirgi oylari va bahor oylarida hayvonlarda ishtahaning sifat tomonidan buzulishlari, ya'ni devorlarni yalash (lizuxa), terining quruqlashishi, ayrim mollarda teri qoplamasining hurpayishi, yaltiroqligining va elastikligining pasayishi, allopetsiya kuzatildi.

«Qazaxdarya» fermer xo'jaligi esa hayvonlarning ahvoli ancha past bo'lib, semizligi oriq, ishtaha va ruminatsiyasi ham pasaygan, hayvonlarning har hil turdagi ozuq emas predmetlarni (latta, paket) yeyish, lizuxa, terilarda elastikligining pasayishi, rangining o'zgarishi kuzatildi.

Bu klinik belgilar asosan minerallar yetishmasligi kasalliklariga xos belgilar hisoblanadi. «Seyit sharwa» va «Qazaxdarya» fermer xo'jaliklarda bug'oz va laktatsiyadagi sigirlarda osteodistrofiya kasalligi belgilari kuzatildi.

Bu kasallik hayvonlarda kaltsiferol (D vitamini) yetishmovchiligi, kaltsiy-fosfor nisbatining noto'g'ri bo'lishi va ayrim elementlarning yetishmovchiligi yoki ortib ketishidan kelib chiqadi. Chunki bu xo'jaliklarda kasallik belgilaridan kesuvchi tishlarning qimirlashi, oldingi oyoq suyaklarining qiyyashishi, devorlarni yalashi, yotganda turishining qiyinlashishi, yurganda oyoqlarda og'riq sezishi, oxirgi dum umurtqalarining so'rilish belgilari kuzatilgan.

Osteodistrofiya kasalligida suyak to'qimalaridagi destruktiv o'zgarishlardan tashqari kavshovchi hayvonlarda katta qorindagi fermentatsiya jarayonlari ham o'zgarib, ozuq moddalarning so'rilishining kamayishiga sabab bo'ladi.

Oxirgi dum umurtqalarining so'rilishi 60% bug'oz sigirlarda, laktatsiyaning 1-2 oylarida 70-80% sigirlarda kuzatildi. Osteodistrofiya natijasida 35% bug'oz sigirlarda lordoz, oxirgi qovurg'alarning deformatsiyasi va yumshab qolishi, ikkala xo'jalikdagi 50-60% sigirlarda sog'in sigirlarda shilliq pardalarning oqarishi, 1-xo'jalikda bug'ozlik davrida 20% sigirlarda, sut berish davrida 40%, 2-xo'jalikda shunga mos holda 40-60%, hayvonlarda terining burma holatiga kelishi, quruqlashishi, elastikligining pasayishi, teri qoplamasi yaltiroqligining pasayishi, dag'allashishi kuzatilib, organizmda A vitamini hamda kobalt, yod, mis, marganets va rux yetishmasligi belgilari kuzatildi. Marganets yetishmovchiligi belgilaridan bo'g'inlarning kattalashishi va deformatsiyasi hamda tilni chiqarib o'ynatish belgilari xarakterli bo'ldi.

Tekshirishlar davomida barcha xo'jaliklardagi sigirlarning tana harorati fiziologik me'yorlar chegarasida bo'lib, bir daqiqadagi yurak urishi soni (me'yorda - 1 daqiqada 60-80 marta) 1-xo'jalikdagi sigirlarda o'rtacha $60,3 \pm 2,4$ martani tashkil etdi. 2-xo'jalikdagi sigirlarda o'rtacha $61,8 \pm 2,2$, marta bo'lishi qayd etildi.

Hayvonlarda bir daqiqadagi nafas soni 1-xo'jalikdagi sigirlarda tekshiruv boshida o'rtacha $27,5 \pm 0,3$ martani (me'yor bir daqiqada 12-30 marta) tashkil

qilgan bo'lsa oxiriga kelib $26,2 \pm 0,2$ tashkil etdi. 2-xo'jalikda esa boshida $25,6 \pm 0,2$ bo'lgan bo'lsa oxiriga kelib $24,7 \pm 0,3$ ni tashkil qildi.

Sigirlarda tekshiruv boshida ruminatsiya (katta qorin qisqarishi) 1-xo'jalikda sigirlarda o'rtacha $2,98 \pm 0,2$ martani tashkil etgan bo'lsa, (me'yor 2 daqiqada 3-5 marta) tekshirishlarning oxiriga kelib o'rtacha $3,13 \pm 0,3$ martani tashkil etdi. 2-xo'jalikdagi sigirlarda o'rtacha $3,33 \pm 0,3$ martani tashkil etgan bo'lsa, oxiriga kelib o'rtacha $3,61 \pm 0,2$ martani tashkil etdi.

Sigirlarda oshqozon oldi bo'limlarining gipotoniyasi kuzatilishini ularni yil davomida bir joyda saqlanishi, homilaning jadal rivojlanishi hisobiga katta qorin devorining qisilishi, dag'al ozuqalar bilan ozuqlantirish, ozuqalar sifati va to'yimligining pastligi bilan izohlash mumkin.

Ilmiy manbalarda mis, kobalt, marganets, rux, yod kabi mikroelementlarning yetishmasligi oqibatida katta qorindagi mikrofloralar faolligining pasayishi va gipomikroelementozlar bilan kasallangan bug'oz sigirlarda oshqozon oldi bo'limlarining 5 daqiqadagi qisqarishlari sonining $7,0 \pm 0,5$ martagacha kamayishi ma'lum qilinadi.

Sutdan chiqarilgan va sog'in sigirlarda klinik tekshirishlar ularda semizlik darajasining o'rtadan pastligi, ishtahaning o'zgarishi (lizuxa), oshqozon oldi bo'limlarining gipotoniyasi, shilliq pardalar rangining oqarishi, teri elastikligining pasayishi va quruqlashishi, burmalar paydo bo'lishi, terida qazg'oq va toshmalar hosil bo'lishi, teri qoplamasi yaltiroqligining pasayishi, dag'allashishi hamda ko'zdan yosh oqishi, kon'yunktivitlar, kseroftalmiya (ko'zning quruqlashishi), umurtqa pog'onasi shaklining o'zgarishi, bug'inlarning kattalashishi va deformatsiyasi hamda tilni chiqarib o'ynatish, oqsash, tuyoqlar shaklining o'zgarishi va noto'g'ri o'sishi, kesuvchi tishlarning qimirlashi, oxirgi dum umurtqalarining mineralsizlanishi, suyaklarning deformatsiyasi va yumshoq bo'lishi kabi vitamin va mineral moddalar almashinuvi buzulishlari belgilari bilan xarakterlanadi.

1-jadval.

Sigirlarni dispanserlash vaqtidagi klinik ko'rsatkichlar (n=5)

Xo'jalik	Tekshirishlar vaqti	Tana harorati, °C	Puls soni, 1 daqiqa da	Nafas soni, 1 daqiqada	Ruminatsiya, 2 daqiqada
«Seyit sharwa» f/x	Boshida	37,5	63,6	30,2	2,9
	Keyingisida	38,3	66,2	31,2	3,4
«Qazax-darya» f/x	Boshida	37,9	62,1	29,6	2,7
	Keyingisida	38,5	64,3	31,2	3,1

Qonni morfologik va biokimyoviy tekshirish natijalari. Hayvonlarda modda almashinuvi darajasini o'rganish uchun qonning morfobiokimyoviy ko'rsatkichlari aniqlashimiz zarur. Bu ko'rsatkichlar sigirlarning vitamin va mineral moddalar almashinuvi buzulishlarida qondagi biokimyoviy o'zgarishlar klinik belgilaridan oldin namoyon bo'ladi. Shuning uchun patologiyalarning

ertachi tashxisida qonda morfibiokimyobiy tekshirishlar o'tkazish katta ahamiyatga ega.

Zotli sigirlarning qonidagi morfobiokimyobiy o'zgarishlarni o'rganish maqsadida Taxtako'pir tumanidagi "Seyit sharwa" fermer xo'jaliklarida "o'xshash juftliklar" tamoyili asosida 5 bosh ajratildi. Bu tekshirishlar qisir, har hil bug'ozlik va laktatsiya davrlardagi sigirlarda orasi 3 oydan ikki marta o'tkazildi. Ikkala tekshirishlar tadqiqotlardan oldin olib borildi.

Taxtako'pir tumanidagi "Seyit sharwa" fermer xo'jaligida sigirlar qonidagi eritrotsitlar soni dispanserlash boshida $2,32 \pm 0,2$ mln/mkl ni tashkil etgan bo'lsa, keying tekshirishga kelib $2,23 \pm 0,2$ mln/mkl tashkil etdi. Bu ikkita ko'rastkichlarning o'rtacha soni $2,27 \pm 0,2$ mln/mkl tashkil etadi.

Mo'ynoq tumanidagi "Qazaxdarya" fermer xo'jaligidagi sigirlarda eritrotsitlar soni $2,18 \pm 0,3$ mln/mkl ni tashkil etgan bo'lsa, tadqiqot oxiriga kelib $2,15 \pm 0,2$ mln/mkl tashkil etdi. Bu ko'rastkichlarning o'rtacha soni $2,16 \pm 0,2$ mln/mkl tashkil etadi.

Sigirlar qondagi gemoglobin miqdori 1-xo'jalkda boshida $99,6 \pm 2,04$ g/l ni va keyingi tekshiruvda $107 \pm 3,04$ g/l ni tashkil etib, o'rtacha ko'rsatkich $103,3 \pm 2,54$ g/l tashkil etdi.

2- xo'jalikda esa gemoglobin miqdori tekshiruv boshida $91,6 \pm 1,36$ g/l ni va keyingisida $87,4 \pm 1,34$ g/l ni tashkil etib, o'rtacha ko'rsatkich $89,5 \pm 1,35$ g/l ni tashkil etdi.

Gemoglobinning kamayib borishi ikkala xo'jalikda ham bug'ozlikning oxirlashuvi ba laktatsiyaning kuchayib borishi bilan gemoglobin miqdorining me'yoridan kamayib borishiga sabab bo'lmoqda. Bu qon ishlab chiqishida ishtirok etadigan kobalt, mis va boshqa elementlarning tuproqda yetarli bo'lsa ham o'simliklar tarkibida kam bo'lishi bilan izohlash mumkin.

Sigirlar qonidagi glyukoza miqdorlari 1- va 2-xo'jaliklarda me'yoriy ko'rsatkichlardan ancha kamligi aniqlangan. Me'yorda qondagi glyukoza miqdori $2,5-3,88$ mmol/l ni tashkil etadi. 1-xo'jalikda tekshiruv boshida o'rtacha ko'rsatkich $1,3$ mmol/l ni tashkil etib, keyingi tekshiruvga kelib $1,2$ mmol/l ni ko'rsatgan. Bu ma'lumotlar 2-xo'jalikda ham mos ravishda $0,8$ mmol/l va $0,7$ mmol/l ni ko'rsatgan.


Ikkala xo'jalikda ham qondagi glyukoza miqdorining kamayishi kuzatilib, bu sigirlarning laktatsiya davrida sut bilan glyukozaning ko'p miqdorda ajralishi va sigirlarning energiyaga bo'lgan ehtiyojining qondirilish darajasining pastligi bilan ifodalanadi.

1- xo'jalikda qon zardobidagi umumiy oqsil miqdori tekshirishlar boshida $67,2 \pm 9,4$ g/l atrofida bo'lib (me'yor- $72-86$ g/l), 2-marta tekshirganimizda $68,5 \pm 8,50$ g/l ga teng bo'lgan.

Bu ko'rsatkich 2-xo'jalikda tajriba boshida $68,6 \pm 7,04$ g/l va keyingisida $65,4 \pm 6,5$ g/l ni tashkil etgan.

Bu holatni sigirlar ratsionining aralash tipda bo'lib, asosiy qismini protein saqlovchi beda yoki aralash otlar pichani tashkil etishi, rastionda uglevodli ozuqalarning yetishmasligi, atsidoz holati va jigarda funktsiyalarining buzulishlari bilan tushuntiriladi.

Sigirlarda minerallar almashinuvi o'rganilganda makroelement hisoblanivchi kaltsiy va fosfor miqdorlarining fiziologik me'yorlariga nisbatan kamayib borishi va magniyning tekshiruv boshida umuman yuqligi va keyinchalik juda kam miqdorda mavjudligi aniqlandi.



1-rasm. Sigirlarning qon zardobidagi kaltsiy, fosfor va magniy miqdorlari.

Qon zardobidagi umumiy kaltsiy “Seyit sharwa” fermer xo‘jaligida o‘rtacha $10,05 \pm 0,01$ mg% ni tashkil etgan bo‘lsa, oxirida $8,32 \pm 0,01$ mg% ni tashkil etdi.

“Qazaxdarya” fermer xo‘jaligidagi sigirlarda qondagi umumiy kaltsiy miqdori tekshiruv boshida o‘rtacha $10,35 \pm 0,01$ mg% ni, keyingisida esa $10,40 \pm 0,01$ mg% gacha kam miqdorda o‘zgarishi (me‘yor- 10,0-12,0 mg%) kuzatildi. ($P < 0,01$). Bu holat sigirlar ratsionida kaltsiyning ortiqcha bo‘lishiga qaramasdan mikroelementlar yetishmovchiligi va katta qorin atsidoz natijasida kaltsiyning so‘rilishining qiyinlashishi, ratsionda D vitaminining yetishmovchiligi oqibatida hayvonlarning bu elementlarga bo‘lgan talabining qondirilmasligi bilan izohlash mumkin.

Sigirlarning qon zardobida anorganik fosfor miqdori tadqiqot boshida 1-xo‘jalikda o‘rtacha $3,48 \pm 0,01$ mg% va keyingisida $3,42 \pm 0,01$ mg% (me‘yor 4,5-6,0 mg%) ni tashkil etgan bo‘lsa, 2- xo‘jalikda tadqiqot boshida o‘rtacha $3,49 \pm 0,01$ mg% va keyingisida $3,36 \pm 0,01$ mg% gacha kamayishi kuzatildi ($P < 0,01$).

Magniy elementi “Seyit sharwa” fermer xo‘jaligidagi tekshiruvdan o‘tgan mavjud sigirlarda 1-tekshiruvda aniqlanmadi va keyingi tekshiruvda $0,01 \pm 0,001$ mg% ni ko‘rsatdi.

“Qazaxdarya” fermer xo‘jaligidagi sigirlarda ham boshida magniy elementi aniqlanmadi va keyingisida $0,01 \pm 0,001$ mg% ko‘rsatdi. Gipomagniyemiya holati ozuqa tarkibida bu elementning yo‘qligi yoki juda kam miqdorda borligini anglatadi. Me‘yorda qonda 3,0-3,5 mg% bo‘lishi shart. Ikkala xo‘jalikda ham 1-

tekshiruvda aniqlanmay, keyingisida kam miqdorda chiqishi, bu yangi yetishtirilgan ozuqalarning berib borilishi bilan bog'liq.

Tadqiqotlar davomida qonda mikroelementlarning fiziologik me'yorlaridan kam bo'lishlari aniqlandi.

Sigirlarning qonidagi mis miqdori tekshiruvlar boshida 1-xo'jalikda o'rtacha $22,5 \pm 0,01$ mkg% ni va keyin $23,1 \pm 0,01$ mkg% tashkil etdi. Hayvonlarning qonida misning me'yordagi miqdori 90-100 mkg% ni tashkil etadi. 2-xo'jalikda misning miqdori $22,1 \pm 0,02$ mkg%, keyin $21,4 \pm 0,02$ mkg% gacha kamayishi (gipokuporoz) kuzatildi. ($r < 0,01$)

Parvarishlanayotgan sigirlarning qonidagi kobalt elementi umuman aniqlanmagan (me'yor 3-5 mkg%). 1- va 2-xo'jaliklarda tekshiruv boshida va keyingisida ham aniqlanmagan.

Sigirlarda marganetsning qondagi miqdori tekshiruv boshida 1-xo'jalikda $13,0 \pm 0,001$ mkg% ni (me'yor 150-250 mkg%) tashkil etgan bo'lsa, keyingi tekshiruvda o'rtacha $11,0 \pm 0,001$ mkg% gacha kamayishi kuzatildi. 2-xo'jalikda boshida o'rtacha $12,0 \pm 0,001$ mkg% bo'lgan bo'lsa, keyingisida 0 ni ko'rsatdi ($r < 0,05$) (2-jadvalda ko'rsatilgan).

2-jadval.

Tajribadagi sigirlar qonining mikroelement tarkibi

T/r	Mikroelementning nomi	Me'yori	Ko'rsatkich	
			Tajriba boshida	90-kuni
1	Mis, mkg%	90-100	$23,1 \pm 0,01$	$21,3 \pm 0,01$
2	Marganets, mkg%	150-250	$13,0 \pm 1,19$	$11,0 \pm 1,12$
3	Kobalt, mkg%	3-5	Izi	Izi
4	Rux, mkg%	100-150	$12,1 \pm 0,02$	$10,9 \pm 0,01$
5	Selen, mkg%	0,1-0,2	0,011	0,006
6	Yod, mkg%	10-15	Izi	Izi
7	Temir, mkg%	90 - 110	$11,2 \pm 0,12$	$8,98 \pm 0,10$

Rux elementining miqdori 1-xo'jalikda tadqiqot boshida o'rtacha $11,7 \pm 0,001$ mkg%, keyin esa o'rtacha $12,9 \pm 0,01$ mkg% ni tashkil etgan. Me'yorda bu ko'rsatkich 100-150 mkg% bo'lishi kerak. 2-xo'jalikdagi mollarda esa tekshiruv boshida va keying tekshiruvda o'rtacha $13,0 \pm 0,001$ mkg% ni tashkil etdi. ($r < 0,01$).

Hayvonlarda mikroelementozlarning uchrashishi ratsionidagi ozuqalar tarkibidagi mikroelementlar miqdori hayvonlarning kunlik talabini qondira

olmasligi va shu bilan birga bug‘oz va sog‘ilayotgan sigirlarning bu elementlarga bo‘lgan talabining oshishi bilan izohlash mumkin.

Dispanserizatsiya davomida sigirlarnida gematologik tekshirishlar o‘rkazish bilan biz shunday xulosaga keldikki, hayvonlarda vitamin va mineral moddalar almashinuvi buzulishlari bug‘ozlikning oxirgi oylari, sog‘in davrida qondagi gemoglobin , glyukoza, umumiy oqsil, umumiy kaltsiy, anorganik fosfor, magniy, kobalt, mis, marganets va ruxlarning miqdorining kamayishi hamda ishqoriy fosfotaza fermentining faolligining oshishi bilan tavsiflanadi.

Mamlakatimizda hayvonlarda alimentar osteodistrofiya kasalligining kelib chiqishining asosiy sababi ratsionda hazmlanuvchi protein, fosfor, kobalt, mis va yod elementlarining yetishmovchiligi hamda undagi kaltsiy-fosfor nisbatining buzulishi hisoblanadi.

3-jadval.

Tajribadagi sigirlar qonining morfo-biokimyoviy o‘zgarishlar dinamikasi

T/r	Qon ko‘rsatkichlari	Tekshirish vaqti	
		Tajriba boshida	Tajriba oxirida
1	Gemoglobin, g/l	107,1± 2,25	87,4± 2,65
2	Umumiy oqsil, g/l	68,7± 1,66	56,3± 1,86
3	Glyukoza, mmol/l	2,5± 0,07	1,82± 0,06
4	Umumiy bilirubin, mkmol/l	1,60± 0,05	2,12± 0,08
5	AlAT, mkmol.s.l.	3,28± 0,05	3,98± 0,06
6	AsAT, mkmol.s.l.	2,79± 0,01	3,41± 0,05

Sigirlarning qonini laborator tekshirilganda ularning asosan biokimyoviy ko‘rsatkichlari (umumiy oqsil, glyukoza, bilirubin, ALT, AST, gemoglobin), qon tarkibidagi makro va mikroelementlar miqdori har bir xo‘jaliklarda alohida tekshirildi. Bu ko‘rsatkichlar hayvonlarni dispanserlash vaqtida orasi 3 oydan 2 marta qon namunalari olinib, biokimyoviy ko‘rsatkichlar №1 Respublika shifoxonasi laboratoriyasida olib borildi. Tekshirish natijalari 1-rasm va 3 - jadvalda keltirilgan.

Jadvallardan ko‘rinib turibdiki Taxtakopir tumanidagi Seyit sharwa fermer xo‘jaligida gemoglobin miqdori Mo‘ynoq tumanidagi “Qazaxdarya” fermer xo‘jaligiga nisbatan ko‘proq bo‘lsa ham me’yordan ancha kam hisoblanadi.

Gemoglobinning kamayishi ikkala xo‘jalikda ham ozuqa tarkibida asosan mis elementining kamligi sabab bo‘ladi.

Qon tarkibidagi elementlar tarkibi esa O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston filiali bo'limida atomli-absorbtsion usulda spektrofotometrda tekshirildi. Tekshirish natijalari 2-jadvalda keltirilgan.

Yuqoridagi jadvallardan ko'rinib turibdiki, hayvonlarning ratsionida ko'pchilik elementlar yetarli yoki miqdoridan ko'p. Lekin Orol bo'yi sharoitida tuproqning sho'rlanish darajasining qancha yuqori bo'lgan sari bu elementlar o'simliklar tarkibida kam bo'ladi yoki umuman bo'lmasligi ham mumkin.

Yozgi ratsion Taxtakopir tumani «Seyit sharwa» fermer xo'jaligida tahlil qilinganda quyidagilar aniqlandi.

Zotli sigirlarda vitamin va mineral moddalar alamashinuvi buzulishlarining etiopatogenezi, simptomatikasi va sindromatikasi, ularning oqibatlari, oldini olish to'g'risidagi adabiyot ma'lumotlariga ko'ra hayvonlarda kaltsiy, fosfor, magniy, marganets, mis, rux va oxir oqibat yod elementlarining yetishmasligi kuzatilib bormoqda. Zotli sigirlarda bu elementlarning yetishmasligi, vitamin va mineral moddalar alamashinuvi buzulishlarining etiopatogenezi, simptomatikasi va sindromatikasi, ularning oqibatlari, oldini olish usullarini Respublikamizning Orol bo'yi sharoitida deyarli darajada o'rganilmagan.

Zotli sigirlarda vitamin va mineral moddalar almashinuvi buzulishlarining etiologiyasida hayvonlarni saqlash sharoitlari, bu kasalliklarning diagnostikasi, oldini olish usullari, hayvonlarda kaltsiy, fosfor, magniy, marganets, mis va rux elementlarining almashinuvi buzulishlari oqibatida kelib chiqadigan patologik o'zgarishlar kuzatilishi va ularni oldini olish haqidagi ma'lumotlar adabiyotlarda kam ekanligini aniqladik.

Zotli sigirlarda vitamin va mineral moddalar almashinuvi buzulishlarining guruhli profilaktikasi uchun vositalarni tanlash klinik, gematologik, tuproq tahlillarini o'rganish uchun birinchi bosqich tajribalarimiz Qoraqalpog'iston Respublikasi Orol bo'yi hududlaridagi Taxtakopir tumanidagi «Seyit sharwa» va Mo'ynoq tumanidagi «Qazaxdarya» fermer xo'jaliklaridagi sigirlarda olib borildi.

Guruhli oldini olish tajribalarida Qoraqalpog'iston Respublikasining Taxtakopir tumanidagi «Seyit sharwa» fermer xo'jaligi sharoitida «O'xshash juftliklar» tamoyili asosida har birida 10 boshdan 1-2 oylik laktatsiyadagi zotli sigirdan iborat bo'lgan jami 6 ta guruh shakllantirildi. Bunda, birinchi guruh nazorat bo'lib xizmat qildi va faqat xo'jalik ratsioni (XR) da saqlandi. Qolgan guruhlar tajriba guruhlari bo'lib xizmat qildi va bunda I-tajriba guruhidagi sigirlarga xo'jalik ratsioni (XR) ga qo'shimcha omixta yemga aralashtirilgan holda 50 g miqdorida Monokaltsiyfosfat berildi. II-tajriba guruhidagi sigirlarga XR va Monokaltsiyfosfatga qo'shimcha ravishda har 7 kunda bir martadan muskul orasiga 10 ml miqdorida Trivit yuborildi. III-tajriba guruhidagi sigirlarga XR va Monokaltsiyfosfatga qo'shimcha ravishda har 7 kunda bir martadan muskul orasiga 10 ml miqdorida Multivit+minerallar yuborildi. IV-tajriba guruhidagi sigirlarga XR, Monokaltsiyfosfat va Multivit + minerallarga qo'shimcha ravishda har 7 kunda bir martadan muskul orasiga 10 ml miqdorida E-selen yuborildi. V-tajriba guruhidagi sigirlarga XR, Monokaltsiyfosfat, Multivit + minerallar va E-selenga qo'shimcha ravishda har 7 kunda bir martadan muskul

orasiga 20 ml miqdorda Katozal-100 yuborildi. Tajribalar 90 kun davom ettirildi.

Tajribalar davomida sigirlar har oyda bir marta klinik tekshirilib turildi. Bu vaqtda tajribadagi sigirlarning klinik ko'rsatkichlari, qonidagi morfobiokimyoviy ko'rsatkichlari va elementlar tarkibi ko'rsatkichlari tekshirilib borildi.

Tajribalarning boshida tajriba va nazorat guruhlaridagi sigirlarda umumiy holsizlanish, ishtahaning o'zgarishi (lizuxa), shilliq pardalarning oqarishi (anemiya), ko'zdan yosh oqish, terining quruqlashishi va elastikligining pasayishi, tananing ayrim joylarida junlarning to'kilishi (alopetsiya), ayrimlarida rangining o'zgarishi, deyarli barcha sigirlarda oxirgi dum umurtqalarining turli darajada so'rilishi, kesuvchi tishlarning qimirlashi, teri qoplamasi va tuyoqlar yaltiroqligining pasayishi kabi vitamin va mineral moddalar almashinuvi buzulishlariga xos klinik belgilar kuzatilgan bo'lsa, tajribalarning oxiriga kelib faqat nazorat guruhidagi sigirlarda klinik-fiziologik ko'rsatkichlarning salbiy tomonga o'zgarishi kuzatildi.

Klinik ko'rsatkichlar "Seyit sharwa" fermer xo'jaligida (1-xo'jalik) birinchi tajriba guruhidagi sigirlarda tajribalarning boshida va keyingi tekshiruvda o'rta hisobda tana harorati $37,5 \pm 0,02^{\circ}\text{C}$, nafas soni 1 daqiqada $30,2 \pm 0,4$ marta va $29,6 \pm 0,5$ marta, puls 1 daqiqada shunga mos ravishda o'rtacha $63,4 \pm 2,0$ marta va $62,6 \pm 2,0$ marta, katta qorin qisqarishi 2 daqiqada $2,9 \pm 0,10$ marta va $2,7 \pm 0,12$ martani tashkil etgan bo'lsa, ikkinchi tajriba guruhidagi sigirlarda o'rtacha $37,9 \pm 0,03^{\circ}\text{C}$, nafas soni $30,2 \pm 0,4$ marta va $29,6 \pm 0,5$ marta, puls 1 daqiqada shunga mos ravishda o'rtacha $63,6 \pm 3,0$ marta va $62,1 \pm 3,0$ marta, ruminatsiyasi $2,9 \pm 0,10$ marta va $2,7 \pm 0,12$ marta ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkichlar tajribalarning oxiriga kelib, ya'ni 90 kundan keyin shunga mos ravishda $38,3 \pm 0,20$ va $38,5 \pm 0,06$; $31,2 \pm 0,5$ va $32,2 \pm 0,5$; $66,2 \pm 4,0$ va $64,3 \pm 4,0$; $3,4 \pm 0,21$ va $3,1 \pm 0,21$ martaga teng bo'ldi.

Uchinchi guruh sigirlarda tajribalar davomida tana harorati deyarli o'zgarmagan bo'lsada, 1 daqiqadagi puls soni o'rtacha $64,6 \pm 2,5$ martadan $71,8 \pm 3,5$ martagacha, nafas soni $30,8 \pm 0,5$ dan $32,4 \pm 0,3$ martagacha oshganligi hamda katta qorin devori harakatining 2 minutdagi soni $3,1 \pm 0,22$ dan $2,8 \pm 0,22$ martagacha pasayganligi qayd etildi.

"Qazaxdarya" chorvachilik fermer xo'jaligida (2-xo'jalik) birinchi tajriba guruhidagi sigirlarda tajribalarning boshida puls soni o'rtacha $62,5 \pm 2,6$ marta, ikkinchi guruhda $66,4 \pm 2,4$ marta, nafas soni shunga mos holda $30,8 \pm 0,5$ marta va $29,1 \pm 0,5$ marta, katta qorin devori harakati $3,1 \pm 0,14$ va $3,0 \pm 0,14$ martani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkichlar tajribalarning oxiriga kelib shunga mos ravishda o'rtacha $64,0 \pm 4,5$ va $63,2 \pm 4,5$; $27,4 \pm 0,4$ va $28,5 \pm 0,4$; $4,2 \pm 0,2$ va $4,5 \pm 0,2$ martaga teng bo'ldi.

Nazorat guruhidagi sigirlarda tajribalar davomida tana harorati fiziologik me'yorlar chegarasida bo'lsada, 1 daqiqadagi puls soni o'rtacha $66,9 \pm 3,2$ martadan $72,6 \pm 4,1$ martagacha, nafas soni $29,2 \pm 0,5$ dan $33,8 \pm 0,4$ martagacha oshganligi hamda katta qorin devori harakatining 2 minutdagi soni $3,1 \pm 0,24$ dan $3,0 \pm 0,24$ martagacha pasayganligi qayd etildi.

Birinchi tajriba guruhidagi sigirlardan olingan qon namunalari 1-xo'jalikda tajribalarning oxiriga kelib, gemoglobin miqdorini o'rtacha 2,4 g/l, ikkinchi tajriba guruhidagi sigirlarda o'rtacha 6 g/l, glyukozani shunga mos ravishda 0,11 mmol/l va 0,2 mmol/l, umumiy oqsilni 2,62 g/l va 1,2 g/l tashkil etgan.

Nazorat guruhidagi sigirlarda esa tajribalarning oxirida gemoglobin miqdorining o'rtacha $94,4 \pm 5,6$ g/l, glyukoza miqdorining $2,18 \pm 0,03$ mmol/l gacha kamayganligi qayd etildi.

XULOSALAR

1. Qoraqalpog'ison Respublikasining Orol bo'yi ekotizimining yuqori darajada tuproq sho'rlanishi va qurg'oqchilikka asoslangan o'ziga xos jug'rofiy-ekologik hamda endemik sharoitlarida zotli qoramolchilik bilan shug'ullanadigan fermalarining poda sindromatikasi 53-67,7% hayvonda semizlikning o'rtachadan pastligi, shundan olinadigan sut miqdori, 100 bosh sigir hisobiga to'g'ri keladigan buzoq soni va yangi tug'ilgan buzoqlar o'rtacha tirik vaznining zotli sigir imkoniyatlaridan pastligi bilan tavsiflanadi.

2. Dispanserlashda klinik status 11,1-22,2% hayvonda lizuxa belgilari, 9,3-22,2% da ishtahaning va ruminatsiyaning pasayishi, 8,2-13,8% da puls va nafasning tezlashishi, 6,2-12% da shilliq pardalarning oqarishi, 6,2-11,2% da jigar sohasining palpatsiyada og'riq sezishi, 40-65% hayvonda modda almashinuvining turli darajadagi pasayishlari bilan tavsiflanadi va zotli sigirlarda vitaminlar va mineral moddalar almashinuvi buzulishlaridan dalolat beradi.

3. Zotli sigirlarda vitaminlar va mineral moddalar almashinuvining buzulishari klinik jihatdan A-gipovitaminoz va polimikroelementozlarning aralash holda kechishi (20-60% hayvonda), alimentar osteodistrofiya (22-46% hayvonda), jigar distrofiyasi (12-36% hayvonda), oyoq kasalliklari (7-20% hayvonda) bilan, buzoq va tanalarda esa bunday buzulishlardan tashqari, gipomagniyemiya (11-16% hayvonda) belgilari bilan namoyon boladi.

4. Orol bo'yi hududlarida tuproqning yuqori darajada sho'rlanishi, undagi margnets miqdorining me'yoriga nisbatan 3-5, magniyning 14 va ruxning 300 baravargacha kam bo'lishi, shuningdek, ratsionda umumiy to'yimlikning hayvon talabiga nisbatan 1,9-2,98 o.b., kraxmalning 870-1125 g, qandning 219-561 g, kobaltning 0,55-2,3 mg ga kam bo'lishi va kaltsiyning 24,4-222 g ga ortiqchaligi, shuningdek, qand-protein va kaltsiy-fosfor nisbatlarining buzilishi mazkur hududdagi zotli qoramollarda vitaminlar va mineral moddalar almashinuvi buzilishlarining asosiy sabablari bo'lib hisoblanadi.

5. Zotli sigirlarda vitaminlar va mineral moddalar almashinuvining buzulishlari klinik jihatdan, mahsuldorlikning intensiv tarzda pasayishlari negizida, OOBGA, lizuxa, junning xiralashishi, alopetsiya, teri elastikligining pasayishi va teri yuzasining qipiqalanishi, shilliq pardalarning oqarishi, kesuvchi tishlarning qimirlashi, qovurg'alarning yupqalashishi va bosganda og'riq sezishi, jigarning palpatsiyada og'riq sezishi, hayvonda ko'p yotishga moyillik va yurganda har xil

darajadagi oqsoqlanish, rentgenografiyada oxirgi dum umurtqalarining turli darajadagi soʻrilishlari bilan tavsiflanadi.

6. Zotli sigirlada vitaminlar va mineral moddalar almashinuvining buzulishlari payida qondagi eritrotsitlarning $4,4 \pm 0,10$ mln/mkl gacha, gemoglobinning $87,4 \pm 2,65$ g/l gacha, umumiy oqsilning $56,3 \pm 1,86$ g/l gacha, glyukozaning $1,82 \pm 0,06$ mmol/l gacha, umumiy kaltsiyning $8,75 \pm 0,92$ mg% gacha, anorganik fosforning $4,1 \pm 0,12$ mg% gacha, magniyning $1,1 \pm 0,01$ mg% gacha, IF ning $31,5 \pm 0,55$ Bod.birligigacha pasayishi, shuningdek, umumiy bilirubinning $2,12 \pm 0,08$ mkmol/l gacha, AlAT ning $3,98 \pm 0,06$ mkmol.s.l. gacha, AsAT ning $3,41 \pm 0,05$ mkmol.s.l. gacha oshishi kuzatildi.

7. Zotli sigirlada vitaminlar va mineral moddalar almashinuvi buzulishlarining oldini olishda laktatsiyaning 3-4 oylaridan boshlab 90 kun davomida xoʻjalik ratsioniga qoʻshimcha ravishda kuniga bir martadan omixta yemga aralashtirilgan holda 25 g da monokaltsiyfosfat berish, har 7 kunda bir martadan muskul orsiga 10 ml multivit+minerallar, 10 ml E-selen va 20 ml Katozal prepratlarini yuborishga asoslangan maxsus guruhli profilaktik majmuani qoʻllash boshqa muqobi variantlarga nisbatan yuqori profilaktik samarani namoyon etdi.

8. Maxsus guruhli profilaktik majmuani qoʻllash zotli sigirlarning klinik hamda fiziologik va metabolik koʻrsatkichlarini moʻtadillashtiradi, xususan, qondagi eritrotsitlarning 1 mln/mkl, gemoglobinning 20,4 g/l, umumiy oqsilning 5,2 g/l, umumiy kaltsiyning 1,9 mg%, anorganik fosforning 0,55 mg%, magniyning 0,24 mg%, misning 11,4 mkg%, marganetsning 11,6 mkg%, ruxning 2,9 mkg%, selenning 0,035 mkg ga oshishi, IF ning 2,8 Bodanskiy birligiga oshishi shuningdek, AlAT ning 0,44 ($3,66 \pm 0,03$ - $3,22 \pm 0,02$) mkmol.s.l. gacha, AsAT ning 0,18 ($2,82 \pm 0,01$ - $2,64 \pm 0,04$) mkmol.s.l. gacha pasayishiga olib keladi.

9. Zotli sigirlada vitaminlar va mineral moddalar almashinuvi buzulishlarining oldini olishda maxsus guruhli profilaktik majmuani qoʻllash sigirlar oʻrtacha irik vaznini nazoratga nisbatan 33%, mahsuldorligini 25,7%, 100 bosh sigir hisobiga toʻgʻri keladigan oʻrtacha buzoq sonini 30%, yangi tugʻilgan buzoqlar oʻrtacha tirik vaznini 16,4% va buzoqlarning yashovchanligini 12,2% ga oshirish orqali har bosh sigir hisobiga oʻrtacha bir yilda 4436000 soʻm sof foyda olish imkoniyatini yaratadi va bunda xarajatlar qoplamasi 3,55 soʻmni tashkil etadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.06/30.12.2019.V.12.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ САМАРКАНДСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ ВЕТЕРИНАРНОЙ
МЕДИЦИНЫ, ЖИВОТНОВОДСТВА И БИОТЕХНОЛОГИЙ**

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
ВЕТЕРИНАРНОЙ МЕДИЦИНЫ, ЖИВОТНОВОДСТВА И
БИОТЕХНОЛОГИЙ**

СЕЙПУЛЛАЕВ АЗАМАТ КУТЛЫМУРАТОВИЧ

**ЭТИОПАТОГЕНЕЗ И ГРУППОВАЯ ПРОФИЛАКТИКА НАРУШЕНИЙ
ВИТАМИНОВ И МИНЕРАЛЬНЫХ ВЕЩЕСТВ У ПОРОДИСТЫХ
КОРОВ В УСЛОВИЯХ ПРИАРАЛЬСКОЙ ЭКОСИСТЕМЫ**

**16.00.01 – диагностика, терапия и хирургия болезней животных, 16.00.02-Патология,
онкология и морфология животных. Ветеринарное акушерство и биотехника
репродукций животных.**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
ВЕТЕРИНАРНЫМ НАУКАМ**

Самарканд – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан указан под номером B2025.1.PhD/V155.

Диссертация доктора философии (PhD) выполнена в Самаркандском государственном университете ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологий.

Автореферат диссертации доктора философии (PhD) на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.ssuv.uz) и в информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net).

Научный руководитель :

Юнусов Худайназар Бекназарович
доктор биологических наук, профессор

Бакиров Бахтияр

доктор ветеринарных наук, профессор

Официальные оппоненты:

Эшбуриев Бахтиёр Маматкулович
доктор ветеринарных наук, профессор

Турсагатов Жахонгир Маматович
кандидат ветеринарных наук

Ведущая организация:

Научно-исследовательский институт Ветеринарии

Защита состоится «21» 11 2025г. в «15⁰⁰» часов на заседании Научного совета DSc.06/30.12.2019.V.12.01 по присуждению ученых степеней при Самаркандском государственном университете ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологий (Адрес: 140103, город Самарканд, ул. Мирзо Улугбека, 77, Тел.: (99866) 234-76-86; e-mail: samvmi@edu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного университета ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологий (зарегистрирована за № 143 48) (Адрес: 140103, город Самарканд, ул. Мирзо Улугбека, 77., Тел./ факс: (99866) 234-76-86, e-mail: samvmi@edu.uz).

Автореферат разослан «08» 11 2025г.
(реестр протокола № 06 от «08» 11 2025г.)



Н.Б.Дилмуродов
Заместитель председателя Ученого совета по присуждению ученых степеней, доктор ветеринарных наук, профессор

К.Х.Уроков
Ученый секретарь Ученого совета по присуждению ученых степеней, доктор философии по ветеринарным наукам

К.Н.Норбоев
Председатель научного семинара при Ученом совете по присуждению ученых степеней, доктор ветеринарных наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (Аннотация диссертации доктора (PhD) философии)

